

O'QUVCHILARNI KREATIVLIGINI O'STIRISHDA TEXNOLOGIYA FANINING O'RNI

Qadirova Dunyoxon Zokirjon qizi

Andijon viloyati Xonobod shahar

9-DIUM "Texnologiya" fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'quvchilarni kreativligini o'stirishda texnologiya fanining o'rni, maktab o'quvchilarining konstruktiv va texnik qobiliyatlarini rivojlantirish haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *kompyuter, pedagogik-psixologik, umumiy iqtidorlilik, tashqi stimul, zamonaviy texnologiyalar.*

KIRISH

Raqamli texnologiyalarni (kompyuter, radio, televideniye, Internet, telefon va boshqalar) ta'lim va jamiyatining barcha sohalariga joriy etish sharoitida, o'quvchilarning texnik qobiliyatlarini rivojlantirishga ta'sir qiladigan murakkab texnik darajalarni darhol o'zlashtirishi, tanqidiy fikrlashni, umumlashtirishni, ob'ektlarni tasniflashni o'rganishda; turli xil ilmiy fanlarning asoslari bilan tanishishda; turli ilmiy sohalaridagi bilimlarni chuqurlashtirish va tizimlashtirishda texnologiya fanining o'rni katta.

Ijodiy tafakkur va kreativlik qobiliyati psixodiagnostikasi zamonaviy psixologiya fanining eng bahsli sohalaridan biridir. Buning birinchi va asosiy sababi hozirgacha fanda intellekt va kreativlik o'rtasidagi munosabat, ijodiy faoliyatda aqliy qobiliyatning roli masalasi atrofidagi bahs-munozaralarda qandaydir umumiy to'xtamlarga kelishning qiyin kechayotganidadir.

Shubhasiz, yuksak ijodiy qobiliyatlar qandaydir yagona va hatto, bir necha omilning emas, balki pedagogik-psixologik shart-sharoitlarning kattagina majmuasi mahsulidir.

ASOSIY QISM

D.B.Bogoyavlenskaya ijodkorlikni quyidagi uchta asosiy tipga ajratgan:

1) Stimulli-mahsuldor faoliyat - bu qandaydir tashqi stimulning harakati bilan aniqlanuvchi mahsuldorlik xarakteriga ega. Bu bo'g'indagi yuqori namoyon bo'lish aqliy qobiliyat rivojining yuqori darajasini o'zida aks ettiradi va "umumiy iqtidorlilik" tushunchasi bilan aynan bir xil.

2) Evristik faoliyat-bu ijodiy xarakterga ega. Inson masalani yechishning yetarli darajada ishonchli usuliga ega bo'lgan holda o'z faoliyati tuzilishi va tarkibini tahlil qilishni davom ettiradi, alohida olingan masalalarni o'zaro taqqoslaydi. Bularning barchasi masalalarni yechishni yangi o'xshashi bo'lmagan usullarini yaratishga olib keladi. Har bir yangi topilgan qonuniyat evristning o'zi tomonida kashfiyot, ijodiy

topilma sifatida baholanadi. Shu bilan bir vaqtda u qo'yilgan masalani hal etishga imkon beruvchi faqat yangi "o'z" usuli sifatida qaraladi;

3) kreativ (ijod). Bunda mustaqil aniqlangan empirik qonuniyatlar yechish usuli sifatida foydalanilmaydi, balki yangi muammo sifatida yuzaga chiqadi.

Ijod (kreativlik, inglizcha *creativity* – yaratuvchanlik) – bu ta'riflash murakkab bo'lgan so'z. Agar inson qandaydir bir g'ayrioddiy va shu bilan bir vaqtda ahamiyatli va foydali narsa yaratgan bo'lsa, biz uni "u ijod" deymiz. Shunday qilib ijod jarayon sifatida emas, balki uning oqibati orqali aniqlanadi.

Uzoq vaqtlar davomida ijod–bu insonga tabiat ehson etgan noyob qobiliyat, u har kimga ham berilmaydi deb hisoblanib kelingan. Psixologlarning ta'kidlashicha, ijod uchun zarur xususiyatlar, shaxsiy sifatlar bevosita o'quvchilarning ijodkorlik faoliyatida rivojlanadi. Ijod bu insonning moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish faoliyati bo'lib, unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati va irodasi faol ishtirok etadi hamda butun bilimi, tajribasi va iste'dodi namoyon bo'ladi.

Texnik ijodkorlik o'quvchining ongida, to'g'ridan-to'g'ri kuzatilgan va amalda o'zgartirilgan, voqelikka qo'shimcha ravishda, "xayoliy, tasavvur qilingan maydonni shakllantiradigan, turli aqliy harakatlari o'zgaradigan, boshqalar bilan birlashib, ajralmas kognitiv tuzilmani hosil qiladigan" jarayoni. Natijada o'quvchining ehtimoliy sohada xulosa qilish, farazlarni tuzish, fikr yuritish imkoniyatiga ega bo'ladigan faoliyatdir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Maktab o'quvchilarining konstruktiv va texnik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud bo'lib, turli xil materiallar, konstruktorlardan va texnik buyumlardan foydalanish orqali turli dizaynlar yaratilmoqda. Maktabda o'rganilayotgan material bilan bog'liq bo'lmagan mexanizmlar, mashinalar, robot modellari, texnologik jarayonlar bilan tanishish, ko'plab maktab o'quvchilari ko'pincha ularni umumiy ma'noda idrok etadilar va mashina, model, mexanizmlarning muhim elementlarini tushunishini qiyinlashtiradi.

O'quvchilar texnik ijodkorligini rivojlantirish uch bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich - motivatsion-mo'ljalli - o'qituvchi o'quvchilarni ijodiy modellashning kelajakdagi holati bilan tanishtiradi, ularni zamonaviy mashinalar, sanoat sharoitida mahsulot yaratish jarayoni bilan tanishtiradi. O'quvchilar tekis va uch o'lchovli geometrik shakllarni yasashni "bosqichma-bosqich" o'rganadilar. Ushbu bosqichda, interfaol usullardan foydalangan holda, o'quvchilar mashina va mexanizmlarni vizual ravishda tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar, ularning ishlashi, tuzilishi va harakatlar prinsipi to'g'risida bilimga ega bo'ladilar. Maktab o'quvchilari zamonaviy texnologiyalar insonning minimal ishtirokida murakkab operatsiyalarni qanday bajarishini ko'rishadi. O'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda tahlillar bilan o'quvchilarni suhbatga jalb qiladi, o'rganilayotgan materialning

mazmunini muammoli holga keltiradi, bunday mashinaning modelini yaratishda o'quvchilarning bilim qiziqishini faollashtiradi.

Ikkinchi bosqich - modellashtirish va konstruksiyalash - o'qituvchi, interfaol texnologiyalarni (miya hujumi, muammoli vazifalar, rolli o'yinlar va boshqalar) amalga oshirishga asoslangan holda, o'quvchilarni qo'shma texnologik ijodkorlik holati bilan tanishtiradi, uning jarayonida ob'ektning texnologik sxemasi ishlab chiqiladi, tarkibiy qismlarning funksional aloqalari aniqlanadi. Ushbu bosqichda o'quvchilar turli dizaynni jiddiy, puxta o'rganishni boshlaydi, bu o'ychanlik, izchillik va moslashuvchanlikni, atrofdagi, dunyodagi analoglarni ko'rish va ulardan foydalanishni talab qiladi.

Uchinchi bosqich - demo - o'quvchilar o'zlarining ota-onalariga, tengdoshlariga hisobot, ko'rgazma yoki hisobot ko'rinishida, o'zi yasagan mashinalar haqida gapirib, faoliyati va oqilonaligini, rivojlanishdagi o'z hissalarini (o'qituvchining rahbarligi ostida) ta'kidlab, bajarilgan ishdan hissiy mamnuniyat oladilar. Ushbu bosqichda statikdan dinamik modellarga o'tiladi.

O'quvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlash metodlaridan muhim ahamiyat kasb etganlari sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

1. Ijodiy ishtiyiq treningi. Bu mashqlar tizimi bo'lib, undagi har bir mashq va barcha mashqlar majmuasi alohida shaxs yoki butun guruh ijodiy salohiyatini o'stirishga xizmat qiladi. Bunda shuni ta'kidlash lozimki, bu mashqlar ixtiyoriy majmua emas, balki muayyan tizimni ifodalaydi. Mashqlarning bu tizimi inson ijodiy harakatlarida sub'ektning qanday xususiyatlari va qobiliyatlari muhim hisoblanishini aytib berish uchun asos yaratadi.

2. Masala yechish. Masalalar yechishga o'rgatish, o'quvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlashning ahamiyatli metodi hisoblanadi, shu vaqtdaki, qachonki o'quvchi uni yechishda ijodiy mashq qilsa.

3. Birgalikdagi harakat.

4. Loyihalar yaratish.

O'quvchilarda intellektual kreativ ko'nikmalar rivojlanishi ularning bilish faoliyatini faollashtiruvchi metodlar (muammoli o'qitish, disputdarsi, ijodiy qo'llash talab etiladigan masala va mashqlar, analiz, sintez, o'quvchilar egallagan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish) orqali amalga oshiriladi. Shuni ta'kidlash lozimki, fanlararo aloqadorlikdan foydalanib bilimlarni mustahkam va ongli ravishda egallash, faqat muammoli o'qitish sharoitida amalga oshirilish mumkin. O'qituvchi tomonidan o'quvchida mavjud nazariy bilim, hayotiy va ishlab chiqarish tajribalaridan foydalanib notanish masalani yechish taqozo etiladigan muammoli vaziyat yaratilishi, ularning fikrlash faoliyati va faolligini keskin oshiradi.

XULOSA

Zamonaviy dunyoda ilmiy kashfiyot va ixtirolar tobora ortib borishi bilan kreativ shaxslarga bo'lgan ehtiyoj ham kuchayib bormoqda. Ijodiy faollik darajasi yetarlicha shakllanmagan odam atrof-olam tomonidan uning oldiga qo'yilayotgan yangidan yangi

savollar javobi va muammolar yechimini topishga qiynaladi. Shu asosda ijodiy yondashuvning yetishmasligi odamning dezadaptatsiyasi sabablaridan biri sifatida gavdalanadi. Zero, ijod odam hayotida yangicha muhitga faol moslashuv, o'zini shaxs sifatida to'liq namoyon etish jarayonining ajralmas qismidir.

ADABIYOTLAR:

1. Alimov N., Tog'ayev X., Turmatov J. O'quvchilarni texnik ijodkorlik faoliyatiga rahbarlik qilish // Kasb-hunar ta'limi. -T.: 2004. - № 3. – B. 26-27.
2. Pardabaev J.E. “O'quvchilar kasb– hunar ko'nikmalarini rivojlantirishda robototexnikaning o'rni” Fan va jamiyat, 2020 yil 2-son., 81-83 b.
3. Ilin YE.P. Psixologiya tvorchestva, kreativnosti, odarennosti. – SPb.: Piter, 2009. – 448 s.
4. Hauser, S.M. (2000), “Education, ability, and civic engagement in the contemporary, United States. Social Sciences Results, Vol. 29 No 4, pp.556-582
5. A'zamxonov S.X. Modern concepts of human capita measurement <http://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/1527> Том. 11 № 5 (2023): ФИДЖЕШ
6. A'zamxonov S.X. Inson kapitali bilan bog'liq tushunchalarning nazariy tahlili <https://interonconf.org/index.php/den/article/view/2533> vol. 2 no. 20 (2023): pedagogical sciences and teaching methods 247-254–bet
7. A'zamxonov S.X. Ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari <https://bestpublication.org/index.php/iq/article/view/1106> vol. 2 no. 22 (2022): ijodkor o'qituvchi 381-386-bet
8. A'zamxonov S.X. Ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/1313/1272> vol. 1 no. 12 (2022): o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 453-459-bet
9. Аликариев Н.С., Аликариева А.Н. Олий таълим сифати менежменти тизимини ривожлантириш концепцияси//“Социология фанлари” (www.tadqiqot.uz\soci) электрон журнали. №1. – Тошкент, 2020. – Б. 7-18. DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-1/>
10. Kadirova Y. B. The Advantages of Improving Students' Civic Literacy in Building a Democratic State Governed by the Rule of Law //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – Т. 8. – №. 5. – С. 469-473.
11. Isropilov m. b. the role of pr technologies in ensuring the sustainable development of society //Open Access Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 729-735.
12. Akhmedova F. [Professional Education Pharmaceutical Personnel in Uzbekistan](#)- Eastern European Scientific Journal, 2018